Osiyo xalqaro universiteti magistranti

M.M.Tovboyeva

Emai-l: tovboyevamaxsuda76@gmail.com

+998972852910

XX-ASRDA ALISHER NAVOIY IJODINI O‘RGANGAN ADIBLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Alisher Navoiy ijodini o‘rganish sohasida amalga oshirilgan ilmiy-adabiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Unda mustaqillik davrida navoiyshunoslikka salmoqli hissa qo‘shgan yetuk adib va olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqot yo‘nalishlari hamda ularning Navoiy merosini talqin etishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, mazkur izlanishlarning milliy ma’naviyat va adabiyotshunoslik rivojidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, navoiyshunoslik, mustaqillik davri, adabiyotshunoslik, ilmiy tadqiqotlar, adib va olimlar, milliy ma’naviyat, badiiy meros.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-литературные исследования, осуществлённые в области изучения творчества Алишера Навои после обретения Узбекистаном независимости. Освещаются научные взгляды и направления исследований ведущих писателей и учёных, внёсших значительный вклад в развитие навоиведения в период независимости, а также их роль в интерпретации наследия Навои. Кроме того, раскрывается значение этих изысканий для развития национальной духовности и литературоведения.

Ключевые слова: Алишер Навои, навоиведение, период независимости, литературоведение, научные исследования, писатели и учёные, национальная духовность, художественное наследие.

Abstract: This article analyzes the scholarly and literary studies conducted in the field of Alisher Navoi’s works after Uzbekistan gained independence. It highlights the academic views and research directions of prominent writers and scholars who made a significant contribution to Navoi studies during the independence period, as well as their role in interpreting Navoi’s heritage. The article also reveals the importance of these studies in the development of national spirituality and literary scholarship.

Keywords: Alisher Navoi, Navoi studies, independence period, literary studies, academic research, writers and scholars, national spirituality, artistic heritage.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix, madaniyat va adabiy merosni qayta o‘rganish jarayoni boshlandi. Chunki bu davrda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash bosh masalaga aylandi. Bu jarayonda Alisher Navoiy ijodini xolis, erkin va chuqur ilmiy asosda tadqiq etish muhim vazifaga aylandi.Alisher Navoiy adabiyotda ma’naviy-axloqiy kamolotning timsoli sifatida haqli e’tirof etildi. Uning ibratli hayoti, shaxsiyati namuna o‘laroq tasvirlandi. Mustaqillik yillari navoiyshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi va bu davrda ko‘plab adiblar hamda olimlar Navoiy merosini yangicha talqin etdilar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish"[1] nihoyatda muhim. Alisher Navoiyning millat rahnamosi sifatidagi badiiy obrazini yaratish va uni tadqiq etish har qachongidan ham ahamiyatlidir. Buyuk ijodkor obrazi tasvirining yangi davrga xos takomil tendensiyalarini belgilash, bu uzluksiz ijodiy jarayonga xos qonuniyatlarini ochish, ularni tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mezonlari asosida baholash kabi zaruratlar esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy merosi va shaxsini o'rganish olti asrdan buyon davom etib kelayotgan uzluksiz jarayon. Alisher Navoiyning ijtimoiy, siyosiy, ijodiy faoliyati zamondosh ijodkorlar: olimlar, shoirlar va tarixchilar asarlarida talqin etilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn"[8], Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"[9], Mirxondning "Ravzat us- safo"[10], Xondamirning "Habib us-siyar"[11] va Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning "Tarixi Rashidiy"[12] asarlari ham shu an'ananing sarchashmalarini tashkil etadi.

Sobiq sho'ro davri o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazini talqin etish muammosi kam sonli ishlarda o'rganildi. Xususan, S.D.Panchenkoning nomzodlik va N.Ahmedovning doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, M.Yusupovaning tadqiqoti ayni muammoni maxsus o'rganishga qaratilgan[13]. Panchenkoning ishida asosiy e'tibor Oybekning "Navoiy" romani hamda Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi tahliliga qaratilgan. Ishda Alisher Navoiy siymosining badiiy talqini sobiq sho'ro tuzumi mafkurasi asosida qisqa va tor doirada yoritilgan. Nurilla Ahmedov esa Alisher Navoiy siymosi talqinlarini o'zbek va turkman folklori, sovet davri mafkurasi singdirilgan asarlar qahramoni sifatida o'rgangan. Mazkur davr adabiyotida Alisher Navoiy badiiy obrazini yaratishda tuzumning talabi bilan haqqoniy hayot tasviridan ko'ra davrga moslashtirib tavsiflashga moyillik kuzatilishi asoslangan. Olim ayrim ijodkorlar ushbu mavzuni jiddiy mushohada qilgani, buyuk shoir obrazini yaratishga katta tayyorgarlik ko'rgani haqida ham yozadi. Alisher Navoiy obrazini yaratishda badiiy mahoratning yetishmasligi, hayot haqiqatini teran anglamaslik, uni badiiy haqiqat darajasiga ko'tara olmaslik kabi kamchiliklar hukmron vulgar-sotsiologik talqin natijasi sifatida baholanadi. Alisher Navoiyning dinga va hukmronlar, xususan, Husayn Boyqaro va temuriylarga munosabati sinfiylik o'lchovlari asosida tasvirlangani ko'rsatib berilgan. Xullas, bu davr adabiyotida shoir obrazi tarixiy haqiqatga zid talqin etilgani dalillangan. Madina Yusupovaning tadqiqotida esa, asosan, Alisher Navoiy haqidagi romanlar va XX asr o'zbek she'riyati namunalari ko'zdan kechirilgan.

Mustaqillik davrida Alisher Navoiy hayoti, ijodini badiiy talqin etish va ilmiy asosda o'rganish o'zaro bog'liq holda kechdi. Shoir biografiyasi va adabiy merosiga doir asl haqiqatlarning aniqlanishi – yangi ma'lumotlarning badiiy asarlar mohiyatiga ko'chishida asos vazifasini o'tadi. Qo'lyozma manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili orqali Alisher Navoiy ilmiy biografiyasining tiklanishi, shoir hayoti va faoliyatining noma'lum bo'lib kelgan tomonlari yoritilgan professor Sh.Sirojiddinovning tadqiqoti[14] ana shu jihatdan alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqot mustaqillik davri adabiyotida Alisher Navoiy obrazini yaratish bilan bog'liq quyidagi masalalarni yoritish uchun asos sifatida xizmat qildi:ulug' mutafakkirning benazir shaxsiyati, yoshligi, oilasi, o'smirligi, qiziqishlari, e'tiqodi, tengsiz iste'dodi va ijodkorligi, biografiyasining Samarqand va umuman Movarounnahr bilan bog'liq qirralari;ustozlari, ularga munosabati, mutafakkirlik sifatlari, do'stga sadoqati va muhabbati mavzusining haqqoniy ifodasi;yosh iste'dodlarga homiyligi,

mulkdor sifatida butun mol-mulkini el-yurt manfaati yo‘liga tikkani, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, Husayn Boyqaro bilan munosabatlari haqida aytiladi.

Istiqlol davrida nashr etilgan Alisher Navoiy biografiyasiga doir manbalar va uning badiiy obraziga oid talqinlar nechog‘liq mutanosib ekani, buyuk shoir sifatida shakllanishida islomiy-irfoniy manbalarning o‘rni va ahamiyati, asarlarining tasavvufiy mohiyati, Alisher Navoiy va Sharq mumtoz poetikasi, g‘azallari sharhi, ijodkor adabiy-estetik an’analarining keyingi davr ijodkorlari she’riyatidagi poetik sintezi kabi masalalarga doir Aziz Qayumov,

[13] Панченко С. Р. Образ Алишера Наваи в Узбекской Советской литературе. Фунд. б-ка СамГУ, 891.709.11- 168, 1964; Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994; Yusupova M. Navoiy obrazining lirik va epik talqini. Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri. diss. – Farg‘ona, 2023.

[14] Bu haqda qarang: Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011; шу муаллиф. Амир Алишер. – Тошкент: Adabiyot,2022-yil

Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, Suyima G‘aniyeva, Ibrohim Haqqul, Muhammadjon Imomnazarov, Almaz Ulvi Binnetova, Nusratullo Jumaxo‘ja, Boqijon To‘xliyev, Nurboy Jabborov, Uzoq Jo‘raqulov, Maqsud Asadov, Karomat Mullaxo‘jayeva, Dilnavoz Yusupova[15] kabi olimlarning tadqiqotlari ulug‘ mutafakkir obrazining badiiy talqini uchun boy material berib kelmoqda.

Ta’kidlash kerakki, ushbu ilmiy muammo mustaqillik davri adabiyoti misolida maxsus tadqiq etilgan emas. Mavjud tadqiqotlar, asosan, XX asr adabiyotidagi talqinlarni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu maqola esa ulardan istiqlol davri adabiyoti maxsus olinganligi, Alisher Navoiy obrazi tasvirining badiiy takomili masalasi yaxlit adabiy-estetik jarayon sifatida tadqiq etilganligi bilan jiddiy farq qiladi. Mustaqillik davri ijodkorlarining Alisher Navoiy obraziga oid tasvirlari XX asr adiblari maktabidan o‘sib chiqqani, ammo Alisher Navoiy shaxsi va ijodini mafkuralardan holi, asliyatiga muvofiq talqin qilishi bilan ulardan jiddiy farqlanib turishi Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Muxtor, Asqar Mahkam, Abdulla Sher, Isajon Sulton kabi ijodkorlar asarlari misolida ochib berilgan.

Mustaqillik davrida Alisher Navoiy haqida yaratilgan asarlarni qiyosiy- tarixiy nuqtayi nazardan tekshirish va shoir obrazining yaratilishida mualliflar mahorati misollar asosida ochib berilgan;

mustaqillik adabiy-estetik jarayonga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgani, bu davrda milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji tufayli Alisher Navoiy obrazi yaratilgan turkum badiiy asarlar yuzaga kelgani, ularda milliy qadriyatlar tasviriga urg‘u berilgani, badiiy tasvirlarning tarixiy haqiqatlar bilan uyg‘unlik darajasi yuksalgani uch adabiy tur asosida dalillangan;

mustaqillik davri ijodkorlarining Alisher Navoiy obraziga oid tasvirlari XX asr adiblari maktabidan o‘sib chiqqani, ammo Alisher Navoiy shaxsi va ijodini mafkuralardan holi, asliyatiga muvofiq talqin qilishi bilan ulardan jiddiy farqlanib turishi Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Muxtor, Asqar Mahkam, Abdulla Sher, Isajon Sulton kabi ijodkorlar asarlari misolida ochib berilgan;

Alisher Navoiy siymosi bu davr adabiyotida estetik ideal timsoli sifatida qabul qilingani, shaxsiyati, axloqi va qarashlari ideallashtirilgani, tasavvufiy va

ma’rifiy dunyoqarashini qayta badiiy inkishof etish tendensiyasi ustuvorlik qilgani

nazariy tahlil va umumlashmalar orqali isbotlangan;

mustaqillik davri adabiyotidagi Alisher Navoiy obrazi ijodkor shaxs konseptiga sig‘masligi, Alisher Navoiy chinakam inson, buyuk davlat arbobi va mutafakkir sifatida ham gavdalantirilgani, asarlarda tadqiqotchilik va ijodkorlik sintezi kuchaygani, talqinlar uch adabiy turga xoslangani – lirikada botiniy tuyg‘ular ifodasi, nasrda fikr, tuyg‘u va faoliyatning baqamti rivoji tasviri, dramada esa muayyan lahzadagi kechinmalarni ko‘rsatish yetakchilik qilishi asoslangan.

Xulosa Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy ijodini o‘rgangan adib va olimlar navoiyshunoslikni yangi ilmiy bosqichga olib chiqdilar. Ularning tadqiqotlari Navoiy merosining milliy va umuminsoniy ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilib, o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotiga mustahkam asos yaratdi.

[15] Қаюмов А. “Ҳайрат ул-аброр” талқини, “Фарҳод ва Ширин” сирлари. Асарлар. 10 жилдлик, I жилд, 1- китоб. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2008; шу муаллиф: Лайли ва Мажнун. Етти саёҳатчи. Садди Искандарий. Асарлар. 10 жилдлик. I жилд, 2-китоб. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2008; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001; шу муаллиф: Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005; Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Тошкент, 2000; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007; Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданиятини ривожида “Мажоз тариқи” босқичи. 2-китоб. Алишер Навоий. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2022; Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; муаллиф: “Қаро кўзим...” ғазали тадқиқи. – Тошкент: Muharrir, 2021; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021; шу муаллиф. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур ғулом номидаги НМИУ, 2015;

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони Халқ сўзи, 2016, май.

2.Мирзиёев Ш.М. «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини ҳалқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзуидаги ҳалқаро конференция иштирокчиларига йўлланган табрик // Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.

3.Панченко С. Р. Образ Алишера Наваи в Узбекской Советской литературе. Фунд. б-ка СамГу, 891.709.11-168, 1964.

4. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари. Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994. – 341 б.

5.Yusupova M. Navoiy obrazining lirik va epik talqini. PhD diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023– 53 b.

6.Сирожиддинов Ш. XIX асрларда асарларда яратилган форс-тожик манбалари (қиёсий- типологик, текстологик таҳлил). Филол. фан. док. дисс. автореф. –Тошкент, 1998. – 45 б.

7. Қаюмов А. Нодир саҳифалар. Навоийнинг кам ўрганилган баъзи асарлари тўғрисида. –Т.: Фан, 1991. – 144 б.
8. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. –Т.: Фан 1963. – 173 б.

9. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. –Т.: Ўқитувчи, 1993. -216 б.

10. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: 2012. – 316 б.
11. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 448 б.
12. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 320 б.
13. Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Тошкент.: 2000. – 164 б.
14. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. –Т.: Фан, 2007. – 224 б.
15. Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданиятини ривожида Алишер Навоий.– Тошкент: Mumtoz so‘z, 2022. – 510 б.
16. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Тошкент: Ўқитувчи,

1996. – 224 б.

17. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot,2021. – 256 б.
18. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 304 б.
19. Аҳмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: 1989. – 128 б.
20. Аҳмедов Т. “Хамса”қаҳрамонларининг характер жозибаси.– Тошкент: Фан, 1986. – 67 б.
21. Алишер Навоий: 1441-1501 йил. Тузувчи З.Бердиева – Тошкент: 1991. – 250 б.

22. Mustaqillik davri o ‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazining badiiy talqini. Toshkent- 2023 -yil Ashurova G. filol. fan. doktori